




Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI PARLAMENTLARARO HAMKORLIGINING O'ZIGA XOSLIGI

Alisher Eshankulov

«Davlat boshqaruvining siyosiy asoslari» kafedrasi dotsenti v.b.,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: taraqqiyot strategiyasi, «O'zbekiston — 2030» strategiyasi, parlamentlararo do'stlik guruhlari, Oliy majlisning an'anaviy va periferik sheriklari, parlamentlararo hamkorlik, parlamentlararo do'stlik guruhlari, xalqaro va mintaqaviy parlamentlararo tashkilotlar.

Annotatsiya: Tadqiqot doirasida xalqaro munosabatlarni mustahkamlashda parlamentlararo hamkorlik, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish orqali O'zbekistonning xalqaro maydondag'i nufuzini mustahkamlash masalalari, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish, Oliy Majlis palatalarining xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik aloqalari o'rganilgan. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, «O'zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarida amalga oshirish, Oliy Majlis parlamentlararo aloqalarining o'ziga xosligi, parlamentlararo munosabatlarni davlatning ochiq va pragmatik siyosat yuritishi bilan mustahkamlanayotganligi tahlil qilingan.

Parlament xalqaro aloqalarining takomillashishi Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan yildan yilga jonlanayotganligi, parlamentlararo do'stlik guruhlari qamrovining sezirlarli ortib borishi qiyosiy tahlil qilingan. Oliy Majlisning an'anaviy sheriklari — Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi bilan aloqalarining mazmuni, parlamentlararo aloqalarni «periferik» davlatlar bilan ham rivojlantirishning ehtimoliy muhim jihatlari o'rganilgan. Bundan tashqari, Oliy Majlis qiziqish doirasida bo'lgan AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubi-Sharqiy

Osiyo, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan ham parlament aloqalari o'matilayotganligiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Oliy Majlis va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan amalga oshirilayotgan parlamentlararo munosabatlarning rivojlanishi tahlil qilingan, ushbu hamkorlarning tashqi siyosatda muhim o'rinn tutishi batafsil yoritilgan. Shu bilan birgalikda, Oliy Majlis parlamentlararo maydonlarda ishlashni ta'minlash va rivojlantirish maqsadida o'rta va uzoq muddatlarda amalga oshirish uchun mo'ljallangan istiqbolli takliflar ishlab chiqilgan.

THE SPECIFIC FEATURES OF THE INTER-PARLIAMENTARY COOPERATION OF THE OLIY MAJLIS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Alisher Eshankulov

Acting Associate Professor of the Department of "Political Foundations of State Administration,"

*Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: development strategy, strategy of "Uzbekistan - 2030", inter-parliamentary friendship groups, traditional and peripheral partners of the Oliy Majlis, inter-parliamentary cooperation, inter-parliamentary friendship groups, international and regional inter-parliamentary organizations.

Abstract: The article examines issues of inter-parliamentary cooperation in strengthening international relations, issues of strengthening the image of Uzbekistan in the international arena through the development of mutually beneficial relations with the countries of the Central Asian region, foreign countries and international organizations, the development of inter-parliamentary cooperation, and also highlights the effective cooperation of the chambers of the Oliy Majlis with the parliaments of foreign countries and international organizations.

The implementation of the priority goals and objectives set in the Development Strategy of Uzbekistan and the strategy "Uzbekistan — 2030", the uniqueness of inter-parliamentary relations of the Oliy Majlis, and also analyzes the strengthening of inter-parliamentary relations in connection with the state's open and pragmatic foreign policy.

The improvement of international relations of the parliament is intensified from year to year by the initiatives of Sh. Mirziyoyev, and the significant increase in the coverage of inter-parliamentary friendship groups is comparatively analyzed.

The relationship of the Oliy Majlis with traditional partners - the countries of Central Asia, the Russian Federation, the People's Republic of China, the Republic of

Turkey and possible important aspects of the development of inter-parliamentary relations with “peripheral countries” were studied.

In addition, attention is paid to establishing parliamentary relations with the United States, the countries of the European Union, Southeast Asia, Japan, South Korea, and the countries of the Middle East, which are within the sphere of interests of the Oliy Majlis.

The development of inter-parliamentary relations with the Oliy Majlis and the countries of Central Asia was also analyzed, and the important role of these partners in foreign policy was explained in detail.

At the same time, promising proposals have been developed for implementation in the medium and long term in order to ensure and develop the work of the Oliy Majlis in interparliamentary areas.

ОСОБЕННОСТИ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Алишер Эшанкулов

и.о. доцента кафедры

“Политические основы государственного управления,”

Академия государственного управления при

Президенте Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стратегия развития, стратегия «Узбекистан — 2030», межпарламентские группы дружбы, традиционные и периферийные партнеры Олий Мажлиса, межпарламентское сотрудничество, межпарламентские группы дружбы, международные и региональные межпарламентские организации.

Аннотация: В рамках статьи изучены вопросы межпарламентское сотрудничество в укреплении международных связей, вопросы укрепления имиджа Узбекистана на международной арене путем развития взаимовыгодных отношений со странами Центральноазиатского региона, зарубежными странами и международными организациями, развитие межпарламентского сотрудничества, а также освещено эффективное сотрудничество палат Олий Мажлиса с парламентами зарубежных стран и международными организациями.

Реализация приоритетных целей и задач, поставленных в стратегии развития Узбекистана и стратегии «Узбекистан — 2030», уникальность межпарламентских связей Олий Мажлиса, а также анализируется укрепление межпарламентских связей в связи с ведением государства открытой и прагматичной внешней политики.

Совершенствование международных связей парламента из года в год активизируется инициативами Ш.Мирзиёева, проведен сравнительный анализ межпарламентских групп дружбы. Были изучены отношения Олий Мажлиса с традиционными партнерами — странами Центральной Азии, Российской Федерацией, Китайской Народной Республикой, Турецкой Республикой и возможные важные аспекты развития межпарламентских отношений с «периферийными странами».

Кроме того, уделяется внимание установлению парламентских связей с США, странами Евросоюза, Юго-Восточной Азии, Японией, Южной Кореей, странами Ближнего Востока, которые входят в сферу интересов Олий Мажлиса. Также было проанализировано развитие межпарламентских связей с Олий Мажлисом и странами Центральной Азии, подробно разъяснена важная роль этих партнёров во внешней политике.

При этом разработаны перспективные предложения для реализации в средне- и долгосрочной перспективе в целях обеспечения и развития работы Олий Мажлиса на межпарламентских направлениях.

KIRISH

Xalqaro maydonda yuz berayotgan geosiyosiy o‘zgarishlar, xalqaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishni ta’minalash tobora dolzarblik kasb etmoqda va o‘z navbatida parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirishga ham hissa qo‘shmoqda. Parlamentlararo aloqalar xalqaro munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, zamonaviy xalqaro munosabatlarning rivojlanish bosqichlari, darajasi, mazmun-mohiyati va istiqbollariga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, davlat oldida turgan muammolarni hal qilishni jadallashtirishni ta’minalashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosat yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlari, eng avvalo, davlatning xalqaro maydonagi nufuzini mustahkamlash, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamda o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuni alohida aytish kerakki, xalqaro aloqalarni mustahkamlash va parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish Parlament faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunga muvofiq, Oliy Majlis palatalarining xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan ko‘pqirrali va samarali hamkorligi izchil davom ettirilib, Yangi O‘zbekistonning strategik dasturlarida ushbu yo‘nalishda belgilangan ustuvor maqsadlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 18-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib

chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin, deb belgilangan¹.

Bundan tashqari, Oliy Majlisning boshqa davlatlar parlamentlari va xalqaro parlament tashkilotlari bilan parlamentlararo hamkorligi va hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlar, komissiyalar, qo'mitalar, ishchi guruhlar va boshqa tuzilmalar tuzish maslesi 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 476-sonli qonunining **34** va **34¹** moddalarida to'liq o'z aksini topgan².

O'zbekiston Oliy Majlisi xalqaro aloqalarining o'ziga xosligi, parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirishning kuchayishi davlat siyosatining ochiq va pragmatik ko'rinishga o'tishi va xalqaro aloqalarni o'rnatishni mustahkamlash fonida yuzaga kelmoqda. Deputatlik korpusi mamlakatda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar davrida Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan, ochiq, milliy manfaatlarini himoya qilishga asoslangan tashqi siyosiy yo'lning faol ishtirokchisiga aylanib bormoqdalar.

Xususan, Davlat rahbarining 2020-yil 20-yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqida milliy parlamentning qisqa muddatda ko'plab nufuzli xalqaro parlamentlararo birlashmalarning faol ishtirokchisiga aylayotganligi bilan birga bir vaqtning o'zida xalqaro aloqalarni tizimli rivojlantirish deputatlik korpusining doimiy e'tibor markazida bo'lishi zarurligini ta'kidlab o'tgan edilar.

Ushbu vazifalarning ijrosini samarali ta'minlash hamda Oliy Majlisning xalqaro aloqalarini mustahkamlash maqsadida qator ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, birinchi navbatda parlamentlararo diplomatiyani rivojlantirishga va parlamentlararo tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirishga mas'ul bo'lgan Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinosari lavozimi ta'sis etildi. Ushbu institut xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari Kengashlari tomonidan xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda parlamentning rolini yanada kuchaytirish maqsadida Parlament diplomatiyasi konsepsiysi qabul qilindi.

Shu bilan birga, 2020-yilning o'zida — xorijiy mamlakatlarning parlamentlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis palatalari Kengashlarining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorlik bo'yicha guruhlari va komissiyalarining ishlarini faollashtirish va amaliy hamkorlikni kengaytirish to'g'risida»gi Qo'shma qarori qabul qilindi.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda **parlamentlararo hamkorlik guruhlari** xorijiy davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish uchun doimiy muloqot maydoni vazifasini o'tamoqda, o'z navbatida, ochiq, konstruktiv va jonli muloqot olib borishning qulay mexanizmiga aylanmoqda. Institutsional o'zgarishlar samarasи o'laroq, parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyati yanada takomillashib borayotganligini kuzatish mumkin.

Xususan, Oliy Majlis xalqaro aloqalari o'ziga xosligining yana bir muhim jihatni 2016–2023-yillar oraliq'ida parlamentlararo do'stlik guruhlari qamrovining sezirlarli ortib borishi va shu guruhlar doirasida manfaatli aloqalarni mustahkamlanib borayotganligi fonida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak ushbu ko'rsatkich agar 2015-yilda palatada xorijiy davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik bo'yicha **9 ta** parlamentlararo hamkorlik guruhni faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2019-yilda ularning soni 28 tani³, 2020-yilda 43 tani, 2022-yilda 53

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini to'g'risida»gi Qonunining 4-bobi, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasи, <https://lex.uz/docs/6445145>.

² O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli qonunitahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlarimilliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son) URL:<https://parliament.gov.uz/oz/friendship;> URL:<https://lex.uz/docs/3689258>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3303> (muroja at sanasi 03.04.2024 y.)

tani tashkil etgan bo'lsa⁴, 2023-yil oxiriga kelib **58 tani** (shu jumladan 57 ta davlat va Yevropa Ittifoqi parlamenti bilan) tashkil etgan⁵. Bu holda parlamentlararo munosabatlarning rivojlanishini jadallashtirish, parlamentlararo manfaatli aloqalarning ko'p vektorli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Parlamentlararo hamkorlik guruhlari O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish, xorijiy davlatlar parlamentlari bilan tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish orqali o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Parlamentlararo tuzilmalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish, o'zaro hamkorlikni yanada jadallashtirish, O'zbekistonga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish uchun yaqin aloqalarni o'rnatishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, parlamentlararo guruhlar faoliyatining tobora jonlanib borishi Qonunchilik palatasining xorijiy davlatlar parlamentlari bilan aloqalari muntazamligini ta'minlashda, shu asnoda O'zbekiston Respublikasining parlament diplomatiyasi konsepsiyasida hamda Oliy Majlisning xalqaro hamkorlik va parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish sohasidagi faoliyatini amalga oshirishning strategik maqsad va vazifalarini, ustuvor yo'nalishlarini ro'yobga chiqarishda muhim rol o'yamoqda.

Aytish o'rinniki, ko'plab olimlar tadqiqotlarida tez-tez uchrab turadigan parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirishning ikkita asosiy yo'nalishi — **ikki tomonlama** va **ko'p tomonlama** muloqotni belgilaydigan pozitsiyani ma'qullaymiz⁶.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatida ushbu ikkala turi ham izchil, ham samarali amalga oshirilmoqda, parlament tuzilishi ham, parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishda mavjud muammolarni hal qilishga moslashgan. Har ikki palatalar tarkibida ham parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha vazifalarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi mavjud.

Parlamentlararo munosabatlarning rivojlanishini ta'minlashda quyi palataning roli yuqori ekanligi, ko'p jihatdan parlamentda Qonunchilik vakolatlari mavjudligi, o'z faoliyatini tartibga solish imkoniyati va Qonunchilik palatasining vakillik organi ekanligi bilan bog'liq.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Oliy Majlisning asosiy sheriklari sifatida — Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi kabi **an'anaviy sheriklar** saqlanib qolmoqda. Ushbu mamlakatlar yirik mintaqaviy yetakchilar bo'lishdan tashqari, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy hayotning boshqa bir qator sohalarida O'zbekiston Respublikasi bilan mustahkam aloqalarga ega.

An'anaviy sheriklar, parlamentlararo munosabatlarning asosini tashkil etishiga to'liq ishongan holda iqtisodiyotni rivojlanish, yangi istiqbollarning paydo bo'lishi, keng horijiy investitsiyalarni jalb qilish va turli sohalarda qo'shma loyihalarni qisqa muddatda amalga oshirish imkoniyatlarini inobatga olib, parlamentlararo aloqalarni «periferik» **davlatlar** bilan ham rivojlantirish ehtimoliy muhimroq yo'nalishlar deb hisoblash mumkin.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, parlamentlararo aloqalarni o'rnatish imkoniyati nuqtai nazaridan Oliy Majlis qiziqish doirasiga AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubi-

⁴ Q.Jo'rayev O'zbekiston Respublikasining ikki va ko'p tomonla ma hamkorligining muhim mexanizmi. URL: [https://yuz.uz/news/parlament-diplomatiyasi\(murojaat sanasi 03.04.2024 y.\)](https://yuz.uz/news/parlament-diplomatiyasi(murojaat sanasi 03.04.2024 y.))

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yilda gi faoliyat to'g'risida Axborot, Toshkent, 2024.

⁶ Муллагалиева Р.Р. Международное межпарламентское сотрудничество в условиях федеративного государства // Правовое государство: теория и практика. 2014. №1(35). С. 92-97. Туябаева А.Т. Теоретические и методологические подходы к формированию системы межпарламентского сотрудничества // Проблемы права и экономики. 2016. №4. С. 3-8. Сатвалдиев Н.А. Методология исследования межпарламентского взаимодействия постсоветских стран // Наука и технологии. 2012. №4. С. 276-279.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yaqin Sharq mamlakatlari va boshqa mamlakatlari kiradi, ular bilan ham parlament aloqalari faol olib borilmoqda⁷.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi paytlarda tashqi siyosat yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, xorijiy mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu borada O'zbekiston tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishi — Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnichilik do'stona va o'zaro qo'llab-quvvatlash ruhidagi siyosat yuritilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy hamkorlik mutlaqo yangi bosqiga ko'tarildi hamda yangi siyosiy muhit yaratildi, mamlakatimizning mintaqadagi barcha davlatlar bilan munosabatlari tubdan yaxshilandi, siyosiy muloqot, mamlakatlar o'rtaida barcha yo'nalishlarda hamkorlik kengayib, ularning natijadorligi sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshirilayotgan parlamentlararo munosabatlarning rivojlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida aytigelanidek, Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi siyosat yo'nalishlari tizimida muhim o'rinni tutadi. Jumladan:

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaida do'stona aloqalarning yuqori darajada yo'lga qo'yilganligi, ko'p jihatdan parlamentlararo aloqalarning ham dinamik rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shmoqda. Qozog'iston vakillari bilan munosabatlarda muhim aloqalar shakllantirilgan bo'lib, ular mamlakatlar manfaatlarini birlashtirishga, siyosiy elita va parlamentlar o'rtaida yanada intensiv hamkorlikni ta'minlashga imkon beradi⁸. Ko'p jihatdan, parlamentlar o'rtaida muhosabatlarning rivojlanishi ikki mamlakat xalqlarining chuqur tarixiy, madaniy va ijtimoiy muhosabatlarning natijasidir⁹.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtaida muhosabatlар ham muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganligini inobatga olib, parlament a'zolarining hamkorligidagi ustuvor yo'nalishlarni konstruktiv muloqot va samarali muhosabatlар deb hisoblash mumkin. Aloqalar ko'pqirraligi ikki davlat parlament a'zolarining intensiv aloqalari tufayli ijro etuvchi xokimiyat vakillari o'rtaida ham barqaror muhosabatlар rivojlanmoqda¹⁰.

Xuddi shunday hamkorlik O'zbekiston va Turkmaniston o'rtaida yo'lga qo'yilgan¹¹. «O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi o'rtaida strategik sheriklik to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining mazmunida mamlakatlari uchun muhim bo'lgan sohalardagi o'zaro muhosabatlarning asosiy xususiyatlari belgilab berilganiga e'tibor qaratishimiz mumkin¹². Darhaqiqat, parlamentlararo aloqalar ikki mamlakatning iqtisodiy farovonligi va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash vositalaridan biridir¹³.

⁷ Фактор парламентской дипломатии в современных международных отношениях. URL: <https://parliament.gov.uz/ru/events/committee/27259/> (мурожаат санаси 18.04.2024)

⁸ «Нур Отан» намерен активизировать межпартийное сотрудничество с Узбекистаном. URL: https://baigenews.kz/news/nur_utan_nameren_aktivizirovat_mezhpartiinoe_sotrudnichestvo_s_uzbekistanom/?ysclid=l4ya4t5igs16444503 (Дата обращения 20.03.2024)

⁹ Ханова И.Е. Казахстан-Узбекистан: история сотрудничества и перспективы взаимодействия // Вестник РГГУ. Серия: Политология. История. Международные отношения. 2017. №4 (10). Ч. 1. С. 79-90

¹⁰ Узбекистан-Кыргызстан: развивается межпарламентское сотрудничество.

URL: <https://aza.uz/ru/posts/uzbekistan-kyrgyzstan-razvivaetsya-mezhparlamentskoe-sotrudn-07-06-2019> (Дата обращения 18.02.2024)

¹¹ Узбекско-туркменское стратегическое партнерство - яркий пример взаимовыгодного сотрудничества. URL: <https://e-cis.info/news/568/90766/?ysclid=l54yca5owb548452586> (Дата обращения 18.03.2024)

¹² O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtaida strategik sheriklik to'g'risida shartnomani (Ashxobod, 2017-yil 6-mart) ratifikasiatsiya qilish ha qida» Qonuni, 01.06.2017-yilda gi O'RQ-433-soni, 2017 y., № 22, b. 409

¹³ O'zbekiston Prezidenti Turkmaniston bilan parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta'kidladi. URL: https://aza.uz/ru/posts/ozbekiston-prezidenti-turkmaniston-bilan-parlamentlararo-hamkorlikni-kengaytirish-muhimligini-takidladi_372636 (Дата обращения 04.04.2024)

Parlament muloqoti so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida ham faollashganligini aytish mumkin. Shunisi e’tiborga loyiqki, parlament muloqoti ikki tomonlama munosabatlarda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal qilish usullaridan biridir. Parlament vakillari o‘rtasidagi aloqa diplomatik chora-tadbirlarning bir qismi sifatida mamlakatlar o‘rtasidagi transport aloqalarining tiklanishini ta‘minlashga imkon bergenligi muhimdir. «O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o‘rtasidagi strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitimni ratifikatsiya qilish to‘g‘risida» gi qonuni xalqaro munosabatlarni o‘rnatish jarayonida parlamentlararo muloqotning ahamiyatini mustahkamladi. Ko‘rib turganimizdek, bu holda parlamentlararo muloqot xalqaro munosabatlarni uyg‘unlashtirish vositalaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo sharoitida parlamentlararo diplomatiyaning katta salohiyatini ochib beradi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan parlamentlararo munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular har xil intensivlikda ishlaydi, shu bilan birga har xil turdag'i muammolarni hal qiladi¹⁴. Qarama-qarshiliklarning yo‘qligi, ijobiy va konstruktiv muloqotning mavjudligi Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlari o‘rtasidagi munosabatlar samaradorligining yuqori darajada ekanligi haqida gapirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, aytish o‘rinliki parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish amaliyotining katta qismi O‘zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi qonunida aks etgan bo‘lib, Oliy Majlisning boshqa mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorligining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston Respublikasi uchun Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi ham parlamentlararo ham ikki tomonlama xalqaro munosabatlarni o‘rnatish alohida ahamiyatga ega. Bizga ma’lumki, ushbu mamlakatlar bilan parlamentlararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati nafaqat parlamentlararo aloqalarni ularning klassik shaklida o‘rnatish, balki mintaqaviy darajadagi munosabatlarni kengaytirish, XXR va RF vakillari ishtirok etadigan xalqaro, parlamentlararo tashkilotlar va tadbirlarda birgalikda ishtirok etishdir.

O‘zbekiston Respublikasining ushbu ikki mamlakat bilan parlamentlararo muloqotini batafsilroq tasvirlab beramiz. Rossiya va O‘zbekiston nafaqat umumiylar tarixiy o‘tmishni, balki muhim iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa aloqalarni ham bog‘laydi. Qo‘shma tadbirlar so‘nggi uch yil davomida parlament vakillari o‘rtasida doimiy ravishda, shu bilan birga turli formatlarda o‘tkaziladi¹⁵. Shu bilan birga, e’tibor berish mumkinki ikki mamlakat vakillari nafaqat parlamentlararo tashkilotlar faoliyati doirasida muammolarni birgalikda hal qilishadi, balki vaqt-i-vaqt bilan qo‘shma tadbirlarda qatnashadilar. Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya forumi doirasida parlament a’zolarining samarali hamkorligini yorqin misol deb hisoblash mumkin¹⁶.

Shu o‘rinda 2023-yilda O‘zbekiston — Rossiya parlamentlararo munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Davlat Dumasi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya tarkibiga Qonunchilik palatasi Spikeri rahbarligidagi 10 nafar a’zosi kiritilganligini ham alohida qayd etish o‘rnli.

Oliy Majlis deputatlari tomonidan XXR bilan tashkil etilgan o‘zaro aloqalar, parlamentlararo munosabatlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanaldi. Ko‘p jihatdan, Xitoy parlament a’zolari bilan aloqalarni kengaytirishga mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi do’stona muloqot, shuningdek Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) doirasida muhim siyosiy aloqalar mavjudligi, ko‘plab investitsiyaviy va qo‘shma iqtisodiy loyihalarning mavjudligi ham yordam

¹⁴ Укрепляется межпарламентское сотрудничество между Узбекистаном и Туркменистаном. URL: <https://yuz.uz/ru/news/ukreplyaetsya-mejparlamentskoe-sotrudnichestvo-mejdu-uzbekistanom-i-turkmenistanom> (Дата обращения 18.03.2024)

¹⁵ В.Володин: парламенты России и Узбекистана должны законодательно обеспечит решения президентов двух стран. URL: <http://duma.gov.ru/news/46240/> (Дата обращения 19.05.2023)

¹⁶ В Ашхабаде стартовал Межпарламентский форум стран Средней Азии и России. URL: <https://rossaprimalvera.ru/news/b0b00972?ysclid=l5259nxszb538666184> (Дата обращения 19.05.2023)

beradi¹⁷. Parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi bиринчи navbatda iqtisodiy, moliyaviy va investitsiya qо'shma loyihalarini rivojlantirish bilan bog'liq¹⁸. Shu bilan birga, Xitoyning mintaqaviy siyosiy markazlari bilan parlamentlararo faol hamkorlik ta'minlanadi¹⁹. Qо'shma tadbirlar o'tkazish, yo'l xaritalarini yaratish va amalga oshirish ayniqsa xalqaro ikki davlat o'rtafigi munosabatlarning intensivlashuviga foydali ta'sir ko'rsatadi hamda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy farovonligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston va Turkiya Respublikasi o'rtafigi muhim do'stona munosabatlar va parlamentlararo aloqalar yo'lga qo'yilgan²⁰. Bunday holda, biz nafaqat Oliy Majlis huzurida tashkil etilgan parlamentlararo do'stlik guruhi muntazam ravishda ish olib borayotganini, balki ikki mamlakat vakillarining xalqaro maydonlarda va turkiy davlatlar tashkiloti faoliyati doirasida o'zaro hamkorligini ta'minlayotganini ko'ramiz. Ikki mamlakat vakillari Turkiy davlatlar tashkiloti parlament Assambleyasi (TurkPA) faoliyati doirasida o'zaro hamkorlik ayniqsa faol ta'minlanmoqda, bu ayniqsa Turkiya tomonidan qo'llab-quvvatlanadi²¹. Darhaqiqat, yuqorida qayd etilgan mamlakatlar bilan parlamentlararo hamkorlikni jadal ta'minlash O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, mintaqaning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy vazifalaridan birdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a'zo davlatlar vakillari bilan ham parlamentlararo aloqalar faol rivojlanmoqda. Ispaniya, Shvesiya, Italiya, Polsha va boshqa qator YeI mamlakatlari bilan parlamentlararo aloqalar faol rivojlanmoqda²². Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi qо'shma ekologik, investitsiyaviy va boshqa o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjudligini inobatga olib parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor.

O'zbekiston Respublikasi va Hindiston, Indoneziya, Kanada va boshqa ko'plab mamlakatlar o'rtafigi muhim aloqalar o'rnatildi²³. Shunday qilib, parlamentlararo munosabatlarni o'rnatishda ko'p vektorga erishish ta'minlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha mamlakatlar bilan parlamentlararo hamkorlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya, ijtimoiy-madaniy va o'zaro manfaatli hamkorlikning boshqa yo'nalishlari hisoblanadi. Parlamentlararo munosabatlarni o'rnatishning asosiy vositalari hamkor davlatlar parlament vakillarini birlashtiruvchi do'stlik guruhlari hisoblanadi. Shu bilan birga,

¹⁷ Крепкие узы межгосударственного сотрудничества. URL:

<https://parliament.gov.uz/tu/events/committee/7019/> (Дата обращения 18.06.2023)

¹⁸ Юсупалиева Д.К. Сотрудничество между Китаем и Узбекистаном // Проблемы науки. 2021 №4. С. 21 -24.

¹⁹ Узбекистан-Китай: укрепляются межпарламентские связи. URL: <https://uza.uz/ru/posts/uzbekistan-kitay-ukrepyayutsya-mezhparlamentskie-svyazi-11-09-2019> (Дата обращения 19.06.2022)

²⁰ В Законодательной палате Олий Мажлис состоялась встреча с председателем Межпарламентской группы дружбы «Турция-Узбекистан». URL: <https://yuz.uz/ru/news/v-zakonodatelnoy-palate-oliy-majlisa-sostoyalas-vstrecha-s-predsedatelem-mejparlamentskoy-grupp-drujb-turtsiya---uzbekistan> (Дата обращения 25.05.2022)

²¹ Председатель Сената Олий Мажлиса встретился с Генеральным секретарем Организации тюркязычных государств. URL: <https://yuz.uz/ru/news/predsedatel-senata-oliy-majlisa-vstretilos-s-generalnm-sekretarem-organizatsii-tyurkoya-zhnx-gosudarstv> (Дата обращения 29.06.2022)

²² Новая многосторонняя дипломатия Узбекистана: сотрудничество во имя мира и стабильности. URL: https://cis.minsk.by/news/13283/novaia_mnogostoronnja_diplomatija_uzbekistana_sotrudnichestvo_vo_imja_mira_i_stabilnosti?ysclid=l4v05a5ih184970071 (Дата обращения 20.06.2022) Узбекистан-Испания:

межпарламентское сотрудничество развивается. URL: <https://uzdaily.uz/ru/post/58646> (Дата обращения 20.06.2022) Узбекистан-Швеция: дальнейшее укрепление межпарламентских связей. URL:

<https://xs.uz/ru/post/uzbekistan-shvetsiya-dalnejshee-ukreplenie-mezhparlamentskikh-svyazej?ysclid=l4ym6alud9612844106> (Дата обращения 20.06.2022) В Олий Мажлисе решили укрепить связи с законодательными органами Италии и Индии. URL: <https://uz.sputniknews.ru/20200617/V-Oliy-Mazhlise-reshili-ukrepit-svyazi-s-zakonodatelnymi-organami-Italii-i-Indii-14355162.html?ysclid=l4ym4ycs5q144150357> (Дата обращения 18.05.2022))

²³ В Олий Мажлисе решили укрепить связи с законодательными органами Италии и Индии. URL: <https://uz.sputniknews.ru/20200617/V-Oliy-Mazhlise-reshili-ukrepit-svyazi-s-zakonodatelnymi-organami-Italii-i-Indii-14355162.html?ysclid=l4ym4ycs5q144150357> (Дата обращения 18.05.2022) Межпарламентский диалог. URL: <https://adolat.uz/ru/partiya/mezhparlamentskij-dialog> (Дата обращения 22.05.2022)

parlamentlararo aloqalardan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy manfaatlarni birlashtirish vositasi sifatida foydalanishga yo'naltirilgan yo'l xaritalaridan foydalanish amaliyoti keng tarqalgan.

Hozirgi vaqtda, Oliy Majlis qator nufuzli parlamentlararo birlashmalarga a'zolikni yo'lgan qo'ydi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning katta qismi O'zbekiston uchun muhim bo'lgan asosiy uchta xalqaro tashkilotlar — Parlamentlararo Ittifoq (PI), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti parlament assambleyasi (YeXHT PA), va Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi Parlament Assambleyasi (MDH PA)²⁴ kabi parlamentlararo uyushmalarga a'zo bo'lib kirganligi bilan bog'liq.

Uchta asosiy platforma bilan faol va konstruktiv parlamentlararo muloqot yo'lgan qo'yilgan. Ko'p jihatdan, bu ushbu maydonchalar bilan o'zaro munosabatlarni ta'minlashning strategik maqsadi dasturiy hujjatlar doirasida ham, mamlakat hokimiyat organlari vakillarining ommaviy siyosiy ritorikasi doirasida ham belgilanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, parlamentlararo muloqot maydonlarida ishlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash va ushbu maydonlar doirasidagi ishlarning samaradorligini baholash zarur deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi vakillari faoliyat ko'rsatayotgan global parlamentlararo maydonlardan biri PI hisoblanadi. Ittifoq doirasida ishlarni tashkil etish bilan bog'liq vazifa (boshqa xalqaro tashkilotlar singari) tegishli normativ-huquqiy hujjat bilan belgilanadi²⁵. Shunday qilib, «Parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorda tashkilotlar bilan ishslash rejali bilan belgilanadi, aniq vazifalarni bajarish uchun mas'ul shaxslar aniqlanadi, tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari va muddatlari belgilanadi. Shunga o'xshash mexanizmlar YeXHT PA va MDH PA doirasida ishlarni tartibga solishda qo'llaniladi, parlamentlararo platformalarda samarali munosabatlar o'rnatishga va ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi.

Parlamentlararo Ittifoq doirasida O'zbekiston vakili oliy Majlis Spikerining birinchi o'rinosari A.Saidovning Ittifoq ijro qo'mitasi tarkibiga kirganligi e'tiborga molik jihat²⁶, shu bilan birga, ushbu muloqot maydoni doirasida qo'shma qarorlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etishda boshqa mamlakatlar vakillari bilan samarali muloqotni ta'minlash mumkin.

Yana muhim ishtirok YeXHT PA doirasida, ko'rib turganimizdek global tashkilot vakillari bilan o'zaro hamkorlikning yuqori mahsulorligi nafaqat O'zbekiston vakillarining Assambleya doirasidagi faolligi bilan, balki mamlakat va mintaqani rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari bilan doimiy ravishda qo'shma tadbirlar o'tkazayotgan YeXHT vakillarining mintaqa va mamlakatdagi faoliyati amaliyoti bilan ham bog'liq²⁷.

Shuningdek, O'zbekiston uchun muhim bo'lgan yana bir tashkilot MDH PA hisoblanadi, tashkilot doirasida 2018-yildan beri faol ish olib borilmoqda va Oliy Majlis vakillari Assambleya ishida faol ishtirok etishlaridan tashqari, Assambleyaning yoshlar tuzilmasi ishiga faol integratsiya qilinmoqda²⁸. Shuningdek tashkilot doirasida amalga oshirilayotgan namunaviy

²⁴ Новый Узбекистан – новое мировоззрение: перспективы международного сотрудничества в парламенте. URL: <https://parliament.gov.uz/ru/events/committee/33186/> (Дата обращения 18.05.2022)

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining «Parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» Qo'shma qarori, 25.09.2020-yildagi 482-IV-son. URL: <https://lex.uz/docs/5201031> (Дата обращения 19.03.2024)

²⁶ Представител Узбекистана избран членом Исполнительного комитета МПС. URL: <https://uzdaily.uz/ru/post/46909> (Дата обращения 19.04.2024)

²⁷ Аспекты работы Олий Мажлиса могут стать примером для парламентов других стран? URL: <https://uza.uz/ru/posts/aspekte-raboty-oliy-mazhlisa-mogut-stat-primerom-dlya-parlam-12-06-2020> (Дата обращения 16.04.2024)

²⁸ Парламентская делегация Республики Узбекистан. URL: https://iacis.ru/ob_organizacii/struktura_mpa_sng/mezhparlamentskaya_assambleya_gosudarstv__uchastnikov_sng/parlamentskaya_delegateciya_respublik_i_uzbekistana?ysclid=l4ym4g69ht463960838 (Дата обращения 15.04.2024)

qonunchilik loyihalarini ishlab chiqish, qo'shma qarorlarni ishlab chiqish va ularni amalda amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarni hal etishda ham faol ishtirok etmoqda²⁹.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida parlament Prezident Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlarga mos ravishda ochiq, o'zaro manfaatlari tashqi hamkorlikni amalga oshirmoqda hamda davlat milliy manfaatlarini himoya qilishga asoslangan tashqi siyosiy yo'lning faol ishtirokchisiga aylandi.

Aytish mumkinki, Oliy Majlis parlamentlararo aloqalarning keng tizimini shakllantirish vazifasini muvoffaqiyatli amalga oshirmoqda. Xususan, Oliy Majlis vakillari muhim xalqaro va mintaqaviy parlamentlararo maydonlar **PI, YeXHT PA, MDH PA** doirasida hamda **parlamentlararo do'stlik guruhlari** doirasida davlat manfaatlarini ilgari surishga va himoya qilishga bel bog'laganlar, shuningdek boshqa yangi parlamentlararo institutlar doirasida aloqalar o'rnatishga faol intilmoqdalar.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bugungi kunda dunyo xamjamiyatida geosiyosiy jarayonlarning shiddat bilan o'zgarib borayotganligi, milliy manfaatlarni mustahkam himoya qilish uchun yangi va zamonaviy parlamentlararo muloqot maydonlari tashkil etish va ular doirasida qo'shni va xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish hamda istiqbolli loyihalarini amalga oshirish masalalari bugun kun tartibiga chiqmoqda.

Bugungi kunda parlamentlararo institutlar bilan ishlashni rejalashtirish chora-tadbirlari, amalga oshirish mexanizmlari va bajarilish muddatlarining aniq ta'rifi bilan yaqin kelajakka bo'lgan istiqbolli va strategik tadbirlar rejasini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi vakillari muntazam ravishda o'tkazilmaydigan, ammo Markaziy Osiyo davlatlari parlament vakillari ishtirok etadigan tadbirlarda faol ishtirok etadilar.

Shu bilan birga, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda parlamentlararo maydonlarda ishlashni ta'minlash va rivojlantirish muhim deb hisoblaymiz.

O'zbekiston vakillari parlamentlararo aloqalarni takomillashtirish borasida tashabbus ko'rsatishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan: parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular ishini aniq va samarali natijalarga yo'naltirish maqsadida har bir do'stlik guruhlari bilan tomonlarning milliy manfaatlariga mos ravishda yaqin va uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategik rejalarini ishlab chiqish;

ikkinchidan: strategik rejalarini ishlab chiqish maqsadida horijiy davlatlar parlamentlarining xalqaro hamkorlik tajribasini o'rganish hamda dunyoda mavjud bo'lgan (60 dan ziyod) xalqaro parlamentlararo tashkilotlar faoliyatini tahlil qilish;

uchinchidan: O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun strategik muhim bo'lgan parlamentlararo muloqot maydonini tashkil etish tashabbusini ilgari surish;

Ushbu takliflarning ijrosi O'zbekiston Respublikasining nafaqat parlamentlararo aloqalarini mustahkamlashga, balki davlat manfaatlarini dunyo arenasida ilgari surish, uning xalqaro nufuzini oshirish, xorijiy mamlakatlar parlamenti, xalqaro parlament tuzilmalari va xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik qilish va tajriba almashishga ijobiy turtki beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi. URL:<https://president.uz/uz/lists/view/3303> (murojaat sanasi 03.04.2024-y.)

2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risida shartnomani (Ashxobod, 2017-yil 6-mart) ratifikatsiya qilish haqida» Qonuni, 01.06.2017-yildagi O'RQ-433-son, 2017 y., № 22, b. 409;

3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son) URL:<https://parliament.gov.uz/oz/friendship>, URL:<https://lex.uz/docs/3689258>

²⁹ Мираэраров М.П.-У., Петрова М.В. Рол Республики Узбекистан в укреплении мира и безопасности в рамках СНГ // Казанский вестник молодых ученых. 2020. Т.4. №4(17). С. 140-148.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining «Parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qo‘shma qarori, 25.09.2020-yildagi 482-IV-son. URL: <https://lex.uz/docs/5201031> (Data obrazeniya 19.03.2024);

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yildagi faoliyati to‘g‘risida Axborot, Toshkent, 2024.

Ilmiy nashrlar:

6. В.Володин: парламенты России и Узбекистана должны законодательно обеспечит решения президентов двух стран. URL: <http://duma.gov.ru/news/46240/> (Дата обращения 19.05.2023)

7. Q.Jo‘rayev O‘zbekiston Respublikasining ikki va ko‘p tomonlama hamkorligining muhim mexanizmi. URL: <https://yuz.uz/news/parlament-diplomatiyasi> (murojaat sanasi 20.03.2024 y.)

8. Мирасаров М.П.-У., Петрова М.В. Рол Республики Узбекистан в укреплении мира и безопасности в рамках СНГ // Казанский вестник молодых ученых. 2020. Т.4. №4(17). С. 140-148.

9. Муллагалиева Р.Р. Международное межпарламентское сотрудничество в условиях федеративного государства // Правовое государство: теория и практика. 2014. №1(35). С. 92-97.

10. Попадюк О. Узбекистан на распутье // Эволюция посцовецкого пространства: прошлое, настоящее, будущее. 2017. С. 183-194.

11. Сатвалдиев Н.А. Методология исследования межпарламентского взаимодействия постсоветских стран // Наука и технологии. 2012. №4. С. 276-279.

12. Туябаева А.Т. Теоретические и методологические подходы к формированию системы межпарламентского сотрудничества//Проблемы права и экономики. 2016. №4.C.3-8.

13. Ханова И.Е. Казахстан-Узбекистан: история сотрудничества и перспективы взаимодействия // Вестник РГГУ. Серия: Политология. История. Международные отношения. 2017. №4 (10). Ч. 1. С. 79-90.

14. Юсупалиева Д.К. Сотрудничество между Китаем и Узбекистаном // Проблемы науки. 2021 №4. С. 21-24.

Internet nashrlar:

15. Фактор парламентской дипломатии в современных международных отношениях. URL: <https://parliament.gov.uz/ru/events/committee/27259/> (мурожаат санаси 18.04.2024)

16. «Nur Otan» намерен активизировать межпартийное сотрудничество с Узбекистаном. URL: https://baigenews.kz/news/nur_otan_nameren_aktivizirovat_mezhpartiinoe_sotrudnichestvo_s_uzbekistanom/?ysclid=l4ya4t5igs16444503 (Дата обращения 20.03.2024)

17. Узбекистан-Кыргызстан: развивается межпарламентское сотрудничество. URL:<https://uza.uz/ru/posts/uzbekistan-kyrgyzstan-razvivaetsya-mezhparlamentskoe-sotrudn-07-06-2019> (Дата обращения 18.02.2024)

18. Узбекско-туркменское стратегическое партнерство-яркий пример взаимовыгодного сотрудничества. URL: <https://e-cis.info/news/568/90766/?ysclid=l54ysca5owb548452586> (Дата обращения 18.03.2024)

19. O‘zbekiston Prezidenti Turkmaniston bilan parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta’kidladi. URL: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-prezidenti-turkmaniston-bilan-parlamentlararo-hamkorlikni-kengaytirish-muhimligini-takidladi_372636

20. Укрепляется межпарламентское сотрудничество между Узбекистаном и Туркменистаном. URL: <https://yuz.uz/ru/news/ukreplyaetsya-mejparlamentskoe-sotrudnichestvo-mejdu-uzbekistanom-i-turkmenistanom>

21. В Ашхабаде стартовал Межпарламентский форум стран Средней Азии и России. URL: https://rossaprimavera.ru/news/b0b00972?ysclid=15259nxszb5_38666184 (Дата обращения 19.05.2023)

22. Крепкие узы межгосударственного сотрудничества. URL: <https://parliament.gov.uz/ru/events/committee/7019/> (Дата обращения 18.06.2023)

23. Узбекистан-Китай: укрепляются межпарламентские связи. URL: <https://uza.uz/ru/posts/uzbekistan-kitay-ukrepliyayutsya-mezhparlamentskie-svyazi-11-09-2019> (Дата обращения 19.06.2023)

24. В Олий Мажлис состоялась встреча с председателем Межпарламентской гр. дружбы «Турция-Узбекистан». URL: <https://yuz.uz/ru/news/v-zakonodatelnoy-palate-oliy-majlisa-sostoyalas-vstrecha-s-predsedatelem-mejparlamentskoy-grupp-drujb-turtsiya---uzbekistan> (Дата обращения 25.05.2023)

25. Председатель Сената Олий Мажлиса встретился с Генеральным секретарем Организации тюркоязычных государств. URL: <https://yuz.uz/ru/news/predsedatel-senata-oliy-majlisa-vstretillas-s-generalnm-sekretarem-organizatsii-tyurkoyazchnx-gosudarstv> (Дата обращения 29.03.2024)